

VATANPARVAR SHOIRNING HAYOTI VA IJODI

Mo‘minov Ilyosjon*Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti**mominovilyos27@gmail.com**+ 998943614696*

Annotasiya: *Ushbu maqola o‘zbek she‘riyatining yorqin vakili, shoir Usmon Nosirning hayoti va ijodiy yo‘liga bag‘ishlangan. Muallif shoirning “Yurak”, “Yana she‘rimga” va “Yo‘lchi” kabi mashhur asarlari misolida uning badiiy mahorati, lirik qahramon ruhiyati va tuyg‘ular falsafasini tahlil qiladi. Maqolada Usmon Nosir ijodining o‘ziga xosligi, uning milliy adabiyotdagi o‘rni hamda Cho‘lpon va boshqa ustoz san‘atkorlar bilan ma‘naviy-ruhiy yaqinligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, shoirning vatanparvarlik g‘oyalari va lirik merosining bugungi avlod ma‘naviy tarbiyasidagi ahamiyati haqida xulosalar bayon etilgan.*

Kalit so‘z: *Usmon Nosir, lirik qahramon, badiiy mahorat, otashqalb shoir, tuyg‘u va go‘zallik, o‘zbek she‘riyati, isyon va bo‘ron, vatanparvarlik, adabiy meros.*

Kirish: Tug‘ma iste‘dod egasi Usmon Nosir 1912 – yil 13 – noyabrida Namanganda, “Chuqurko‘cha” dahasida kosib mulla Mamatxo‘ja Muhammadxo‘ja oilasida tug‘ulgan. Otasidan yetim qolgan Usmon Nosir Qo‘qondagi internatda tarbiyalanadi. Iste‘dodli o‘smir u yerda rus va jahon adabiyotining sara namunalari bilan tanishadi. Bolaligidan she‘rlar yoza boshlagan Usmon Nosir badiiy ijod bilan bor yo‘g‘i o‘n besh yilgina, ya‘ni qamoqqa olinguncha astoydil shug‘ullandi. Shu fursatda o‘zining qanchalik nodir iste‘dodga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatdi. Iste‘dod shunday bir javohirki, u dengiz tubida sadaf ichida ham gavhar. Iste‘dod shunday bir irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor. Iste‘dod shunday bir gulki, uning ochilmagan har g‘unchasida chamanlarning bo‘yi va tarovati bor. Usmon Nosirning elga qurbon bo‘lgudek qalbi bor edi. U agar, hech bo‘lmasa, 1941-yilgacha yetib kelolsa, balki o‘sha fidoyi jonini Sulton Jo‘ra kabi vatan uchun qurbon qilgan bo‘lard. Agar unga uzoq umr ko‘rish nasib etsa, balki necha-necha betakror she‘ru dostonlar dramalar yozib, adabiyotimizning tabarruk siymolaridan bo‘lib, yetmish beshga kirib yurardi! deb bejizga ta‘kidlab o‘tmagan ustoz Erkin Vohidov. Insonni, uning ma‘naviy dunyosini kashf etadigan qudratli bir vosita borki, u ham bo‘lsa so‘z san‘ati badiiy adabiyotdir.

Tahlil: Xalqimiz orasida manashu g‘oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste‘dodini bag‘ishlab adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallagan o‘lmas asarlarni yaratgan buyuk so‘z san‘atkorlari yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda

faxrlanamiz. Shu o‘rinda Usmon Nosirni bir nechta she‘ri bilan tanishamiz. Usmon Nosirni “Yurak” she‘rida shoirning g‘oyaviy-badiiy niyatini ifodalovchi lirik qahramon ruhiyatini butun mukammallik bilan aks ettiruvchi asosiy poetik obraz yurakdir. . Birinchi bandda ma‘naviy asos, ya‘ni yurak istioraga aylangan holda so‘z, oy kabi poetik timsollar bilan birgalikda muayyan estetik maqsadni ifodalashga xizmat qiladi. Yana, yurak so‘zga, nayga aylanib lirik qahramon kechinmalarini o‘ziga xos kuy va ohanglarda kuylovchi, lirik qahramonni shu tarzda oshiqqa aylantiruvchi kuchga aylanadi.

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo‘r etding,
Ko‘zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim!⁸⁷

Ikkinchi to‘rtlikda esa “Yurak”ning ichki va tashqi xususiyatlari aralash holda kuylab, o‘ziga xos poetik kashfiyot qilinmoqda:

Senga tor keldi bu ko‘krak,
Sevinchning toshdi qirg‘oqdan⁸⁸

Birinchi misrada ko‘proq yurakning fiziologik xususiyatlarini (yurakni siqilish, qisqarish, kengayish) nazarda tutish yetakchilik qilsa, keyingi misrada sof ma‘naviy badiiy asos yetakchi o‘rinni egallaydi.

Tilim charchar, ajab gohi,
Seni tarjima qilmoqdan,⁸⁹

Baytida esa moddiy va ma‘naviy asos birdek ishtirok etayapti. She‘rning keyingi bandida to‘laligicha istioraga aylangan yurakning poetik surati chiziladi.

Sen, ey, sen o‘ynoqi dilbar,
Zafardan izla yoringni.
To‘lib qayna, tashib o‘yna,
Tirikman, kuyla boringni.⁹⁰

Lirik qahramonning kitobi yangliq yangragan bu misralarda yurak “o‘ynoqi dilbar”da yorini zafarlardan izlovchi mashuqaga qiyos qilinayapti. Lirik qahramon uning jo‘shib

1. Badiiylik asoslari va mezonlari .Toshkent 2022-yil.

2. “Fitna san‘ati “ (2- kitob “Fan” nashriyoti, Toshkent 1993.)

3. Turkiy adabiyot durdonalari .Usmon Nosir “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022 yil.

4. Usmon Nosir Tanlangan asarlar. 2-tomlik. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot. 1969. 1-tom, 93-bet.

o‘ynashini, ko‘nglida neki bo‘lsa, borini kuylashini istaydi. Agar yuqoridagi bandlardagi fikrni kengaytiradigan bo‘lsak, yoki she‘rning tahlilini davom ettiradigan bo‘lsak, quyidagicha mazmun kelib chiqadi. Birinchi bandida yurak – lirik qahramonning so‘zi, uning ichki tuyg‘ulari bosh aylanguvchi bir vosita sifatida namoyon bo‘ladi, inson a‘zolaridan hech biri yurak kabi ritmik va o‘ta murakkab faoliyat bajara olmasligini yaxshi bilamiz. Balki shoir yurakning shu tomonini hisobga olib uni so‘zga qiyoslagandir. Chunki so‘z ham ma‘lum tartibga bo‘ysinuvchi notalar bo‘yicha chertilib ohang hosil qiladi. Ikkinchi misrada lirik qahramonning dardlarini kuy qilib tilga uzatadigan yurak, ya‘ni nayga jo‘r etadi.

Senga tor keldi bu ko‘krak.⁹¹

Bu tanam, ko‘kragim senga torlik qilayapti, sen shunchalik hayajondasanki, katta ko‘krak qafasidan chiqib ketay deyapsan. Bu o‘rinda shoir o‘z yuragini keng bir ummonga, uning shodligini, quvonchini esa o‘ynoqlab, to‘lib-toshib oqayotgan daryoga qiyoslaydi. Keyingi misrada lirik qahramon yuragining bunday beto‘xtov, betinim po‘tanalaridan hatto tili charchab qolganligidan noliydi. Go‘yo yurak buyuradi, til uni insonlarga tushunarli qilib tarjima qilib beradi. Demak, shoir shunchaki hayotiy havas bilan emas, yurak amri bilan qo‘liga qalam oldi, qalb tug‘yonini qog‘ozga ko‘chirdi. She‘rning ilk misralaridayoq tug‘ilgan “Yurak” obrazi misradan-misraga o‘tib jonlanib boradi. Nihoyat u she‘rning oxiriga, yakunlovchi bandlarida, lirik qahramon, ya‘ni shoirning ruhiy olamini dunyoqarashini ham uning shaxs sifatidagi yuksak ma‘naviy ma‘rifiy qiyofasini ham belgilaydi. Lirik qahramon shijoati, e‘tiqodi shunday kuchliki, u hech qanday murosaga yo‘l qo‘ymaydi. Ushbu murosasizlik, shijoat poetik obrazning ham moddiy (“yoril”) ham ma‘naviy asosi (“chaqmoqqa aylan”)da birdek ifoda etilmoqda. Shoir mahorati shu bilan belgilanadiki, she‘rda “Yurak”ni she‘riyatda ko‘p uchraydigan “ko‘ngil” poetik obrazi darajasiga ko‘targan holda inson ma‘naviyati qirralarini kashf etadi va eng muhimi mazkur obraz she‘r g‘oyasini harakatga keltiruvchi, lirik qahramon ichki tuyg‘ularini muhim poetik kashfiyotga aylantiradi. Usmon Nosirning boshqa bir qator she‘rlarida ham “Yurak- ko‘ngil” obrazi o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lgan. Shu jihatdan shoirning “Qushcha kabi derazamga urar qanotin” misrasi bilan boshlanuvchi she‘ri xarakterli. She‘rda lirik qahramonning yaqinlashib kelayotgan kuz fasliga bo‘lgan ruhiy munosabati ifodalangan. “Vodiylardan chechak taqib kelgan sentyabr” ya‘ni, kuz o‘z xush tarovati, so‘lim manzaralari bilan lirik qahramon ko‘nglida o‘ziga xos tuyg‘ular uyg‘otadi. U kuz manzaralaridan o‘zgacha zavq oladi, tuyg‘ulari besabr qiynaydi. Uning uchun sozga aylangan, tilini nayga jo‘r etgan yurakning shu chog‘dagi holatini quyidagicha tasvir etadi. Shu chog‘dagi yuragimni tinglangiz,

5. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 2-tomlik. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot. 1969. 1-tom. 170-bet.

tinglangiz hay hu...aks sadosi gumburlaydi go‘yo zambarak: “sezgilarning bebozori – menimcha tuyg‘u, menga shodlik va gullarning lablari kerak!” Aks sadoning o‘zi zambarakdek gumburlasa tovush qay darajada ekan? Ha lirik qahramonning yurak zalvorlarini tasavvur qilish mumkin. Bu bozorga solinmayigan tarozida sotilmaydigan sezgilarning ichida eng bebahosi hisoblanmish tuyg‘ularning zarbidir. Shodlik va nafis gullarning g‘uncha lablaridan go‘zallikdan munavvar bo‘lgan tuyg‘u! Shoir she‘riyati yuragiga jo‘shib aks sado berayotgan go‘zal tuyg‘ularning merosidir. Shoir yuragi – menimcha tuyg‘u” hayqirmaydi. Axir haqiqiy she‘r o‘sha “Bozorlarda sotilmaygan, tarozida tortilmaydigan” go‘zallikda tengsiz ko‘ngilda tug‘ilgan tuyg‘udan yaraladi. Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdamov bu xususda shunday yozadi: “Tuyg‘u go‘zallikdan yoki go‘zallik sari intilishidan” tug‘iladi. U eng kamida musaffo osmonda charx urib o‘ynayotgan qush yanglig‘ parvoz qilishni istaydi. Bu o‘rinda go‘zallikning ma‘nosi “chiroylilik” ma‘nosidan tasavvur qilib bo‘lmas darajada keng.

Yo‘lchim, manzolim dengizdan nari,

Lojuvard ufqning tubiga yaqin.

Ko‘nglimda dardlarim daryodek og‘ir,

Chayqalar ko‘zlarim tiklgan sari.

O yo‘llar! Chu qoratoychog‘im! Shu qora yo‘rg‘am!

Murodga qasd qilib yugurgan yutur.

Bo‘ronni sevmasa, dil nechun tupur?

Tiriklik ne kerak bemehnat, beg‘am! Chu qora yo‘rg‘am!⁹²

Bir qarashda bu she‘rda ko‘zga yarq etib tashlanadigan jihat, masalan, o‘ziga xos tashbeh yo‘q. Uning so‘zlarini go‘yo his hayajonli gap holida ham aytish mumkindir. Shundaymikin? Fikrimizcha. Usmon Nosirning bu she‘ri I. G‘afurov ta‘biri bilan aytganda “Ilhomiy shoir”lik qiyofasini ochib beruvchi tuyg‘u asosida qurilgan. She‘rni o‘qigach hassas o‘quvchi qalbida ohangdor so‘zlar emas, tuyg‘u – shoirmi dengizdan ham nariga, ufqlar tubiga yaqin joylarga boshlovchi bo‘ladi. Uning bo‘ronni sevishi-yu mehnat g‘amga quchoq ochishning o‘ziyoq yana bitta she‘r bemisl tuyg‘u go‘zallik xuddi shu tuyg‘udan yaratilgan she‘rning jonida ham tuyg‘u yashar ekan, siz uni nasrda izhor etsangiz ham she‘rning qiymatini tushungaydir. Zotan, haqiqiy she‘r bu – o‘lmas tuyg‘u. Ha, zero shoir mahorati ham shu tuyg‘ular go‘zalligi, nafisligi bilan belgilanadi. Usmon Nosir “Yana she‘rimga” she‘rida o‘zining yurak tubidagi samimiy kechinmalarini, hislarini “she‘r” chib beradi.

She‘rim! Yana o‘zing yaxshisan.

6. U.Hamdammov. 30 yillar o‘zbek she‘riyatida sof lirika muammosi avtoreferat. 1997. 67-bet.

Boqqa kirsang gullar sharmanda
Bir men emas hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.⁹³

Birinchi misrada shoir she’rida xuddi jonli xilqatga bo’lgani kabi murojaat qilayapti. Go’yo u lirik qahramon ya’ni shoirning dardlariga hamroh bo’ladi. O’z ta’rifini eshitib quvondi. She’riyatning to’g’rirog’i so’z san’atining buyuk qudratini ikkinchi misrada boqqa kirsang gullar sharmanda e’tirofi bilan bayon etadi. Bu tasviriy ifodani uning boshqa she’rlarida ham uchratamiz. Ammo bu o’rinda shoir “she’r”ga shunday ta’rif beradiki, agar u boqqa kirgan bo’lsa, o’zga gullar uning hushiga mahliyo bo’lib esankirab uyalishlari yoki rashkdan yonishlari mumkin. Usmon Nosir “she’r”ni ana shunday go’zal malika darajasiga ko’taradi. Biz uning she’rlaridagi maftunkor jozibali go’zallikni ko’rib bilmog’imiz uchun unga shoirning lirik qahramon – she’r shaydosining ko’zlari bilan qarashimiz lozim bo’ladi. Chunki oshiq nazdida uning ma’shuqasidan go’zalroq zot bo’lishi mumkin emas. Usmon Nosir she’rini jismidagi joniga qiyoslaydi. Ma’lumki, jon tiriklikning g’alabasi, tabiatning asaridir. Chunki jon bo’lmasa inson quruq shaklga aylanadi. Tabiat esa rasmga. Binobarin, shoir uchun she’r yashash va sevish, his qilish, bir so’z bilan aytganda, tiriklik manbai. Bu manbadan marhum bo’lish o’lim bilan tengdir. Bu konsepsiya she’rning keyingi misralarida yanada teranroq, yanada chuqurroq aks ettiriladi.

Yuragimning dardi – naqshisan,
Qilolmayman seni hech kanda!
O’t bo’lurmi ishqiy yo’q tanda?
Dardimsanki, she’rim yaxshisan.⁹⁴

Oldingi misralarda lirik qahramonning joniga, yuragiga qiyos qilgan she’r bu o’rinda shu yurakning dardu olami ham, quvonchu shodligi ham ekanligi e’tirof etilmoqda. Shoir poetik obrazi tasnifini umumiylikdan xususiyatlikka ko’chirayapti. Uchinchidan misradagi qisman lirik chekinish she’r yurakning ishq o’tiga aylanadi. Badiiy ijodda ba’zan shunday she’rlar dunyoga keladiki, ular alohida shoirlarnigina emas davr va zamon she’riyatining hal qiluvchi nafasini belgilashga xizmat qiladi. Bunday she’rlar poeziyaning kurash xarakteri, ijtimoiy haroratini namoyish etadi, adabiyotda o’lmas tarixiy so’z bo’lib qoladi. Chin shoirning so’z fikr ohanglaridan hamisha uyg’oq nimadir yashaydi. Nimadir o’chmaydi. Nimadir kelajakka dahldor bo’lib qolaveradi. Usmon Nosirning dunyoqarashi va ijodiyoti qanchalik murakkab, nechog’lik ziddiyatli bo’lmasin, san’atkorlik bilan yaratilgan asarlari adabiyotimizning yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. Biz bundan ko’z yumsak, Usmon Nosir emas

7. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 2-tomlik, 1-tom. 1969. 93-bet.

8. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 2-tomlik, 1-tom. 1969. 93-bet.

adabiyotni, qolaversa, o‘zimiz o‘zligimizni kamsitgan bo‘lamiz. To‘g‘ri Usmon Nosir xayolot olamining o‘rmonlarida ko‘p kezgan. Noumid yurakdan to‘kilgan, noumidlik fikru tuyg‘ularidan misralar tuzgan. U ba‘zan “eski jarohatli qalb” satrlarning nashtari-la” tiladiki, bundan so‘z bag‘ri azob va og‘riqqa to‘ladi. U dunyo hasratlarida uchrasha-uchrasha a‘lam bilan bahslasha-bahslasha nekbinlikka yetishgan shoirdir. Adolat yuzasidan shuni hisobga olish kerakki, ma‘lum vaqtlar Usmon Nosir qalbida hokimlik qilgan tushkunlik yolg‘iz ungagina xos bo‘lmagan. U murakkab davrning murakkab qismatli ijodkor farzandlaridan biri edi. Shuning uchun u qarama-qarshiliklarga boy ijodiy izlanishlar bilan jahon adabiyotining o‘nlab mashhur so‘z san‘atkorlar davrasida tura oladi. Usmon Nosir lirikasi – milliy zamini juda mustahkam, poydevori mustahkam she‘riyat hisoblanadi. She‘riyat – so‘z san‘atining boshqa janrlariga qaraganda o‘zining nafisligi, his tuyg‘ularining jo‘shqinligi obrazlarning serqirraligi va ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Chunki adabiyotning ushbu turi – inson qalbi, shuuridan otilib chiqayotgan tuyg‘ularni, voqelikka bo‘lgan ehtirosli va murosasasiz munosabatlar ifodasidir. Shu bois lirika, inson qalbini butun ziddiyatlari bilan, butun isyonlari bilan aks ettirishga qodir bo‘lgan, ilohiy qudratga ega bo‘lgan yengilmas kuch hisoblanadi. Shu sababdan she‘riyat olami, she‘r hodisasi uning o‘ziga xos tabiati adabiyotshunoslar, faylasuflar, nafosatshunoslarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Biz iste‘dodli shoir Usmon Nosir she‘riyatida vatanparvarlik g‘oyalarining qo‘llanilishi mavzusini tahlil qilishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Usmon Nosir o‘zbek adabiyotining porloq yulduzi, lirik shoiri edi. Uning yangroq lirikasi o‘zbek adabiyotidagi lirik oqimlarga hamohang bo‘ldi. Uning bir umr yaratgan asarlari ham o‘ziga xos odim bo‘lib kira oldi va unga yanada go‘zal joziba baxsh etdi. Shoir ijodidagi o‘ziga xos xususiyatlar, shoir she‘riyatining soddaligi, ravonligi, xalqonaligi bilan ajralib turadi.

Yurak sensan mening sozim,

Tilimni nayga jo‘r etding,

Ko‘zimni oyga berkitding,

Yurak, sensan ishqibozim.⁹⁵

Shoirning “Yurak” she‘ri ijodkorning odamiylik xarakteri va ijodiy taqdirini o‘z ijodida mujassam etgan, she‘rlar sirasiga kiradi. Shoir yuksak obrazni o‘zining ilhomi, ijodiy intilishlari, his-tuyg‘ulari, orzu o‘ylarining mujassam timsoli deb biladi. Ya‘nikim, shoirning yurakka murojaati aslida shoir shaxsiyatiga murojaatidek yangraydi.

Senga tor keldi bu ko‘krak,

Sevinching toshdi qirg‘oqdan..

Tilim charchar, ajab, gohi

Seni tarjima qilmoqdan.⁹⁶

She’rning badiiy kashfiyotiga aylanishida, obrazligini ta’minlashda badiiy vositalari muhim ahamiyatga ega. Badiiy janr vositalari obrazli ifoda obrazlilik bularning hammasi badiiy asarning yuksak san’atga aylanishiga muhim omillardan bo’lib, badiiy asarda ijodkor o’y hayoli, orzusini ochishda ham, poetik ma’no mazmun ifodalanishida ham, badiiylikni, obrazlilikni ta’minlashda ham va nihoyat lirik qahramon ruhiyati his-tuyg’ularini yorqin va go’zal ifodalashda muhim rol o’ynaydi. Shuhratning “Yosh leninchi” gazetasida (1988-yil 18-sentabr) bosilgan adabiy suhbatda keltirilishicha, Usmon Nosir Cho’lponni “O‘zbek she’riyatining podshosi” deb ta’riflab, uning “she’rlarini o’qib shoir bo’lganman”, - degan ekan. Usmon Nosir dunyoqarashda kurash. Qullikdan qutilmoq chorasi – isyon, haqiqat ishqi – isyon. Shoir “Yo’lchi” atalgan she’rida “Bo’ronni sevmasa, dil nechun tepur?.. Chu qaroyo’rg’am”, - deydi. Bo’ron ham isyonning bir surati. Bo’ronni sevgan shaxsgina “ko’nglim yondi. Qiyin. Qonim qo’zg’alur...”, demoqqa qodirdir. Ayni shu ma’noda Usmon Nosir Cho’lponga ruhdosh va izdosh. U Cho’lponga o’xshab davr murakkabliklarini butun ziddiyatlari bilan idrok eta olgan san’atkor. Mana shuning uchun ham u davr “odamning o’ziniginamas, hissini ham xarob” etishni qayg’u bilan so’zlagandi. Usmon Nosir tug’ma she’riy iste’dod egasi edi. Shu o’rinda O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning shoirning tug’ma iste’dodi va ijodi haqida obrazli tarzda bildirgan quydagi fikrini eslash o’rinlidir: “Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz. U shunday iste’dod egasiki bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdir. Shoirning g’oyat qisqa umriga nazar slogan kishi juda uzoq o’ylarga tolishi shubhasizdir. Chunki, bu chaqmoqdek umrda benihoya katta imkoniyatlar yonib ketganligini ko’rib va his qilib turasiz. Usmon Nosir ulug’ va she’riyatning diydasiidan oqib ulgurmagan shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir, tutqich bermas hayot poralaridir. Bu obrazli ta’riflar otashqalb Usmon Nosirning qisqa, ammo go’zal she’riyati va iste’dodiga berilgan eng chiroyli tashbehlaridir.

Xulosa: Darhaqiqat, biz Usmon Nosirni otashqalb, har bir she’rida yoshlik sururi mavjurgan shoir sifatida bilamiz. Uning har bir she’ri kelajak avlod uchun muhim bo’lgan vatan tuyg’usini, o’z yurtini sevimli va unga bo’lgan muhabbatini baralla izhor qilishni o’rgatadi. Usmon Nosir mana shunday inson sifatida o’zbek xalqining sevimli shoiri, g’ururi bo’lib, garchi hayot bo’lmasada o’zining go’zal asarlari bilan mudom yashab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Badiiylik asoslari va mezonlari. Toshkent 2022-yil.

2. "Fitna san'ati" (2- kitob "Fan" nashriyoti, Toshkent 1993.)
3. Turkiy adabiyot durdonalari .Usmon Nosir "O‘zbekiston nashriyoti", 2022 yil.
4. Usmon Nosir Tanlangan asarlar. 2-tomlik. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot. 1969. 1-tom, 93-bet.
5. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 2-tomlik. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot. 1969. 1-tom. 170-bet.
6. U.Hamdammov. 30 yillar o‘zbek she’riyatida sof lirika muammosi avtoreferat. 1997. 67-bet.
7. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. 2-tomlik, 1-tom. 1969. 93-bet.